

BOBOEV S.A., KADIROVA A.M., AZIZOV S.A.

KO'RISHNING PROGRESSIV PASAYISHI

O'quv-uslubiy qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBIBIY TA'LIMNI RIVOJLANISH MARKAZI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
OFTALMOLOGIYA KAFEDRASI**

Ko'rishning progressiv pasayishi



(Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining magistratura rezidentlari, klinik ordinatorlari, yuqori kurs talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma)

SamDTU
axborot-resurs markazi

SAMARQAND– 2023

Mualliflar:

Boboev S.A. – Samarqand davlat tibbiyot universiteti oftalmologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi.

Kadirova A.M. - Samarqand davlat tibbiyot universiteti oftalmologiya kafedrasini dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi.

Azizov S.A. – Samarqand davlat tibbiyot universiteti oftalmologiya kafedrasini klinik ordinatori.

Taqrizchilar:

Ikramov A.F. – Andijon davlat tibbiyot instituti oftalmologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professori

Vasilenko A.V. – Samarqand davlat tibbiyot universiteti oftalmologiya kafedrasini dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi.

Izoh. Ko'rish organining ko'rishning progressiv pasayishiga oid asosiy nazariy masalalar aks ettirilgan. Etiologiyasi va klinik ko'rinishi ta'kidlangan, diagnostikaning zamonaviy usullari, ko'zlar va ularning qo'shimchalarini tekshirish, shuningdek, ko'rishning progressiv pasayishi bilan kasalliklarni davolashning mavjud usullari keltirilgan. Oxirida test savollari, vaziyatli topshiriqlar mavjud.

*Uslubiy tavsiyanoma SamDTU Ilmiy kengashda muhokama etilib chop etishga tavsiya etilgan.
"1" noyabr 2023 yil. Bayonnomasi № 7*


Ilmiy kengash raisi, professor

Ilmiy kengash kotibi, PhD



Ж.А.РИЗАЕВ

У.У.ОЧИЛОВ



Mundarija

KIRISH.....	4
DARS MAVZUSI:	5
«Ko'rishning progressiv pasayishi»	5
DARS MAZMUNI.....	8
1. REFRAKSIYA PATOLOGIYASI.....	8
1.1. PROGRESSIV MIYOPIYA (o'suvchi miyopiya)	8
1.2. YOSHGA BOG'LIQ REFRAKSIYANING O'ZGARISHLARI ...	11
2. KO'ZNING OPTIK MUHITLARINING TINIQLIGINING BUZILISHI.....	11
2.1. SHOX PARDANING PATOLOGIYASI	11
2.1.1. Shox pardaning xiralashishi (belmo).....	11
2.1.2. Keratopatiyalar	13
2.2. GAVHAR PATOLOGIYASI.....	14
2.3. SHISHASIMON TANA PATOLOGIYASI	16
2.3.1. Shishasimon tanananing suzuvchi xiraliklari	16
3. TO'R PARDA PATOLOGIYASI.....	18
3.1. ARTERIAL GIPERTENZIYADA TO'R PARDANING O'ZGARISHLARI.....	19
3.2. QANDLI DIABETDA TO'R PARDANING O'ZGARISHLARI....	20
3.3. TO'R PARDANING DISTROFIK O'ZGARISHLARI	22
3.3.1. Qarilik makula degeneratsiyasi	22
3.3.2. To'r pardaning pigmentli distrofiyasi.....	23
3.4. TO'R PARDANING YALLIG'LANISH KASALLIKLARI (XORORETINIT).....	24
4. KO'RUV NERVINING PATOLOGIYASI.....	25
4.1. KO'RUV NERVI DISKINING DIMLANISHI (OND).....	25
4.2. KO'RUV NERVINING ATROFIYASI	26
5. BIRLAMCHI GLAUKOMA	27
FOYDALANILGAN ADABIYOT.....	35

shuningdek, arterial gipertenziya (AG) va qandli diBET hisobidan yuzaga keladi.

DARS MAQSADI: ko'rish o'tkirligining asta – sekinlik bilan pasayishiga olib keladigan ko'z kasalliklari diagnostikasi, klinikasi, davolash va oldini olish bilan tanishtirish. Aniqlangan patologiyalarda umumiy amaliyot shifokorining taktikasini aniqlang berish.

VAZIFALAR:

1 . Asta - sekinlik bilan ko'rish o'tkirligining pasayishiga olib keladigan kasalliklarning umumiy tavsifi.

2 . Asta - sekinlik bilan ko'rish o'tkirligining pasayishiga olib keladigan kasalliklarning qishloq vrachlik punkti va qishloq vrachlik ambulatoriya sharoitifa, kasalliklarni erta aniqlash va davolash usullarini o'rgatish.

3 . Talabalarni patologiyasi bo'lgan bemorlarni mustaqil tekshirishga o'rgatish

4 . Talabalar va umumiy amaliyot shifokorlarini amaliy ko'nikmalarga va retseptlar yozishga o'rgatish.

JOY, REJA VA VAQTNi TASHLASHTIRISH

Mashg'ulotlar shifoxonaning o'quv xonasida o'tkaziladi.

1 . Talabalarning "Zaif bo'g'in" usuli bilan boshlang'ich bilim darajasini aniqlash - 30 daqiqa.

2. Talabalar bilan suhbat o'tkazish Materialni tahlil qilish va tematik bemorlarni tekshirish, dars davomida slaydlarni, atlas jadvallarini o'rganish – 90 daqiqa.

3. Dars mavzusi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, retseptlar yozish, masalalar yechish - 90 daqiqa.

4 . Mavzuning o'zlashtirilishini guruh muhokamasi usulida nazorat qilish, ma'ruza daftarlari va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha konspektlarni tekshirish - 45 daqiqa.

5.Talabalarni olingan ballar bilan tanishtirish, o'qituvchining xulosasi – 15 daqiqa.

MATERIAL VA TEXNIK taminoti

Sivtsev jadvali, Rota apparati, to'g'ridan tugri oftalmoskop, oynali oftalmoskop, 2 xil lupa 13,0^D va 20,0^D, binokulyar lupa, biomikroskop,

Maklakov tonometri, Feorster perimetri, refraktometr, skiaskopik lineyka, algesimetr, oftalmologik ultratovush apparati (A - B skanerlash), atlas, slaydlar, jadvallar, mulyaj va slaydoproektor.

Talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan AMALIY MALAKALAR RO'YXATI:

1. Viziometriya (ko'rish o'tkirligini aniqlash).
2. Ko'zni yon tomondan yoritib ko'rish va kombinatsiya lashgan usullar bilan tekshirish.
3. Biomikroskopiya (tirqishli lampa yordamida tejshirish).
4. Oftalmoskopiya (to'g'ridan-to'g'ri va teskari)/
5. Refraktometriya.
6. Retinofot.
7. Skiaskopiya.
8. Tonometriya (palpatsiya yo'li bilan va Maklakov usuli bo'yicha).
9. Perimetriya, nazorat usulida va Foerster perimetri yordamida
10. Algesimetriya.
11. Konyunktiva xaltachasiga ko'z tomchilarni tomizish va malhamlarni qo'yish.
12. Ultratovushli biometria.
13. Dori vositalariga va ko'z oynaklarga retseptlar yozishi.

DARS MAZMUNI

1. REFRAKSIYA PATOLOGIYASI

Refraksiya - bu optik-fiziologik holati bo'lib ko'zning tinch holatidagi, parallel yorug'lik nurlari ko'zning optik muhitlaridan o'tib, sinib to'r pardada yig'ilishi va to'r pardada tasvirning hosil bo'lishi.

1.1. PROGRESSIV MIYOPIYA (o'suvchi miyopiya)

Progressiv miyopiya - bu ko'rish o'tkirligining uzoq masofaga asta-sekinlik bilan, ammo barqaror ravishda yomonlashadigan holat (1-rasm). Bu holat asosan maktab yillarida oldingi emmetropiya yoki zaif ametropiya fonida yuzaga keladi.

Og'ir progressiv miyopia barcha ko'z kasalliklari tarkibida ko'rlikning 30% dan ortig'ini tashkil etadi.



1-rasm. Yuqori darajali miyopiya

O'suvchi miopiyaning kelib chiqishiga sabablarigaa ko'ra shartli ravishda: *akkomodation*, *nasliy* va *skleraga bog'liq* turlarga bo'linadi .


Miyopiyaning asosan *akkomodativ* turi ko'pincha yengil darajada (-3,0 D gacha) bo'lib, ko'z ichi, irsiy va ijtimoiy-gigiyenik omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Irsiy turi autosom dominant va autosom retsessiv yo'llar bilan nasldan naslga o'tadi.

Skleral formasi skleraning tug'ma va irsiy zaifligi va tashqi va ichki teratogen omillar ta'siridan kelib chiqadi. Bunga ko'z ichki bosimi ta'sirida ko'zning cho'zilishi qo'shiladi. Ko'zning sagittal o'qi skleraning eng zaif orqa qismi hisobidan o'sadi.

Miyopiyaning ushbu shakllarining har birining rivojlanishi asta-sekin qaytarilmas morfologik o'zgarishlarga va ko'rishning sezilarli pasayishiga olib keladi, bu esa ko'rish o'tkirligini optik korreksiya yordamida sezilarli darajada tiklanmaydi.

2-



rasm. Miyopiya kasalligida uchraydigan markaziy xorioretinal degeneratsiya

Birinchi navbatda, bu ko'zning oldingi orqa o'qining sezilarli darajada o'sishi tufayli yuzaga keladi; ko'zning oldingi orqa o'qining uzunligi 22-23 mm o'rniga, 30-32 mm yoki undan ko'pga cho'ziladi, bu ultratovus yordamida aniqlanadi. Agar 1 yil davomida miyopiya darajasi 1,0 D dan kam oshsa, u shartli ravishda yaxshi sifatli, asoratsiz miyopiya hisoblanadi. Agar miyopiya darajasi 1 yil davomida o'sish gradienti 1,0 D va undan ko'p bo'lsa, yomon sifatli, asoratli miyopiya hisoblanadi. Bunday hollarda, ko'z olmasi kattalashadi, hajmi kengayadi, tashqariga chiqadi, ko'z tirqishi kengayadi. Sklera, ayniqsa, tashqi mushaklarning biriktirilgan joyida va limbga yaqin sohalarida yupqalashadi va buni oddiy ko'z bilan ham ko'rish mumkin. sklera yupqalashganligi sabab unung tagida joylashgan tomirli qavat ko'rinadi va skleraning rangi ko'kimtir rangda bo'ladi. Shox parda ham cho'ziladi va yupqalashadi. Oldingi kamera kengayadi, chuqurlashadi, Yegil iridodenez yani rangdor pardaning titrashi kuzatiladi. Shishasimon tana suyuqlashadi, loyqalanadi va destruksiya aniqlanadi. Miyopiyaning kelib chiqishi va darajasiga qarab, ko'z tubida organik patalogik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Buni umumiy amaliyot shifokori hamda oftalmologlar ajratib olishi kerak:


- a) disk atrofida yorug'lik yoyi refleksleri;
- b) miyopik konuslar;
- c) haqiqiy stafilomalar;
- d) makulyar sohadagi o'zgarishlar ;
- e) to'r pardaning kistasimon degeneratsiyasi;
- f) to'r pardaning ko'chishi.

Miyopiyaning yengil darajasida to'r parda bo'ylab (bitta yoki ikkita) ko'ruv nervi diski atrofida konsentrik ravishda ko'rinadigan yorug'lik reflekslarini ko'rish mumkin.

Miyopik konuslar ko'p hollarda ko'ruv nervi diskining chaka tomonida chegaralari aniq, yarim oysimon, o'roq shaklidagi oq, sarg'ish-oq yoki sarg'ish-pushti rangdagi patologik o'choqdir.

Stafilomalar yoki skleraning haqiqiy stafilomasi odatda yuqori darajadagi miyopiyaning belgisidir. Oftalmoskopik usulda skleraning stafilomasi, stafilomasi bo'lmagan joydan aniq yoysimon chiziq shaklida ajralib turadi, ba'zan esa ko'rish nervi diskga nisbatan konsentrik joylashgan doira shaklida ko'rinadi . (2-rasm).

Degenerativ va atrofik o'choqlar eng og'ir patologik o'zgarishlar turiga kiradi, o'zgarishlari kop holatlarda makula sohasida ko'rinadi. Ko'z olmasining orqa segmentining cho'zilishi natijasida makulada sarg'ish yoki oq rangli yoriqlar paydo bo'lad, ular bir biriga qo'shilib dag'allashgan pigmentli o'choq hosil qiladi. (3-rasm).



3-rasm. Miyopiya kasalligida uchraydigan Fuks dogi, skleraning orqa stafilomasi.

Makula sohasida patologik o'zgarishlarning rivojlanishi natijasida bemorlarda metamorfopsilar hosil bo'ladi (bemor ob'ektlarning egri va chiziqlarini ko'radi), keyin ko'rishning pasayishi, ba'zan esa ko'rishning butunlay yo'qolishiga olib keladi.

Diagnostika: viziometriya, oftalmoskopiya, tonometriya, skiaskopiya, avtorefraktometriya, oftalmometriya, ko'z ultratovush tekshiruvu (A-B skanerlash), retinofot .

Davolash: miopiyaning darajasini sikloplegiyadan keyin to'g'ri aniqlash va ko'rish qulaylikni ta'minlaydigan ko'zoynaklar yoki kontakt linzalarni tanlash, keyinchalik mashg'ulotlarni (ish) va dam olishni (yosh va kasbga qarab) rejimni to'g'ri almashtirish.

Ko'rish o'tkirligini saqlash maqsadida bemorlarni dispanser nazoratga olish, dori-darmonlar (FIBS, vitamin B kompleksi, Aevit, vazodilatatorlar: nikoshpan, trental , halidor , agapurin , sklera devorlarini mustahkamlovchi preparatlar: kaltsiy preparatlari; retinoprotektorlar : taufon , emoksipin. Jarrohlik: skleroplastika, lazer bilan davolash: retinaning fotokoagulyatsiyasi.

1.2. YOSHGA BOG'LIQ REFRAKSIYANING O'ZGARISHLARI

Asosan katta va keksa yoshdagi bemorlarning yoshi bilan bog'liq refraksiyadagi o'zgarishlar sabab, ko'rish o'tkirligining asta-sekin yomonlashishi shikoyati sababli shifokorga tez-tez murojaat qilishadi.

Refraksiyaning o'zgarishlariga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash kerak:

1) yosh oshgani sari ko'zning akkomodativ qobiliyatning pasayishi qayd etiladi, bu gavhar yadrosining sklerozi bilan bog'liq bo'lgan va bir qator bemorlarda avval "yashirin" va akkomodaiya kuchayishi bilan qoplanagan gipermetropiya aniqlanishi bilan bog'liq mumkin;

2) ikkinchidan yoshga bog'liq bo'lgan gavhar sklerozi (*fakoskleroz*), gavhar xiralashishi (*katarakta*) refraksiya kuchining oshishiga va yengil miyopiyaning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu holat umumiy amaliyot shifokori tomonidan viziometriya va sub'ektiv refraktometriya (refraksiyani ko'zoynak tanlash yordamida aniqlash va korreksiya qilish) yordamida diagnostika qilinishi kerak. Odatda, yengil darajadagi musbat va manfiy 1,0-2,0 diopterli linzalar yordamida bemorlarda ko'rish o'tkirligi sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

2. KO'ZNING OPTIK MUHITLARINING TINIQLIGINING BUZILISHI

Ko'zning asosiy optik (nur sindiradigan) muhitlarigalariga shox parda, gavhar va shishasimon tana kiradi.

2.1. SHOX PARDANING PATOLOGIYASI

2.1.1. Shox pardaning xiralashishi (belmo)

Asosan tashqi tinch bo'lgan ko'zning ko'rish o'tkirligining pasayishi turli xil keratitlar – belmo oqibati, hamda turli xil **keratopatiyalar** sabablidir.

Shox pardaning xiralashishi – belmo deb shox pardaning yallig'lanish (keratit) jarayonidan keyingi yoki travmatik shikastlanish tufayli shox pardaning chandiqli xiralashihiga aytiladi (4-rasm). Shox parda xiraligining intensivligiga qarab, belmoning turli darajalari farqlanadi (klinik holatga ko'ra):



4 – rasm. Shox pardaning belmosi.

1 daraja – yon tomondan yoritib ko'rganda aniqlanadigan, tutunli bulutlar shaklidagi xiralik aniqlanadi, bu ko'rish funktsiyalariga deyarli ta'sir qilmaydi;

2-daraja – shox pardaning aniq ko'rinadigan mahalliy xiralashishi va agar optik zonada joylashgan bo'lsa ko'rish o'tkirligining sezilarli (0,1-0,3 gacha) pasayishiga olib keladi, bu o'z navbatida ko'plab mutaxassisliklar uchun yaroqsiz bo'lishiga olib keladi va erta bolalik davrida binokulyar ko'rish qobiliyatini yo'qotish va hamkor g'ilayliklar rivojlanishining sababi bo'lishi mumkin.

3 – 4 daraja - haqiqiy belmo (shox parda muzli yoki chinni oynaga o'xshaydi, ko'pincha qon tomirlarining o'sib chiqishi mumkin), bunda ko'rish o'tkirligi sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi, ko'rish o'tkirligi yuzdan, mingdan biriga yoki yorug'lik sezishga teng bo'lishi mumkin.

Bemorda shox pardada xiralik rivojlanishi holatlari kuzatilsa, bemor o'zi ko'rish o'tkirligining pasayishini otkazilga shox parda shamolashi - keratitga bog'laydi. Odatda, bu ko'rishning pasayishi progressiv emas.

Diagnostika: viziometriya, yon tomondan yoritib ko'rishi, oftalmoskopiya, biomikroskopiya, algisimetriya.

Davolash. Belmoni yo'q qilish – muamo, asosan jarrohlik yo'li bilan keratoplastika. Kasallikning dastlabki bosqichida oftalmologning tavsiyasiga ko'ra konservativ davo usullarini qo'llash mumkin (kollalizin, lekozim, papain, lidaza fermentlarining subkon'yunktival in'ektsiyalari; fizioterapevtik usullar - bu moddalarning elektro - va fonoforezi; biostimulyatorlar tayyorlash aloe, FIBS, torf , platsenta ekstrakti va boshqalar).

Bemor shox pardani jarrohlik yo'li bilan qayta tiklash yoki transplantatsiya qilishdan bosh tortgan hollarda, shuningdek, ko'z tuzilmalarida qo'pol chandiqli patologiyalarda keratoplastika yoki keratoprotezlash ko'rsatmalar bo'lmasa, bemorga kosmetik kontaktli linzalar taqish taklif qilish kerak.

2.1.2. Keratopatiyalar

Asta – sekinlik bilan ko'rish o'tkirligining yomonlashib borayotgan shox pardaning degenerativ-distروفik jarayonlar, **keratopatiya** deyiladi (5-rasm).



5 – rasm. Keratopatiya

Etiologiya. Keratopatiyaning sabablari orasida, birinchi navbatda, shox pardaning surunkali (asosan professional) mikrotravmalari va uzoq mudatga cho'zilgan shox parda shikastlanishlar, ayniqsa uning limb sohasidagi, shuningdek, organizimning modalar almasuvining buzilishi bilan o'tadigan kasalliklar (ko'pincha paratiroid bezlari tomonidan, kaltsiy tuzlarining yetishmovchiligi) shox pardaning stromasida chiqindilarning to'planib, ko'rish o'tkirligining pasayishiga olib keladi); qaytalanuvchi virusli infeksiya; kataraktning ekstksiyasidan keyingi asoratlari va "sun'iy gavhar" - ko'z ichi linzalarini (IOL) implantatsiyasidan keyingi asoratlari, shox pardaning kimyoviy kuyishlaridan keyin.

Keratopatiyalardan eng ko'p uchraydigan turlaridan **epitelial - endotelial distrofiyalar (EED)** umumiy amaliyot shifokori uchun ko'proq ahamiyatga ega.

Klinikasi EED ko'pincha shox pardaning sezgirligining xarakterli sezilarli pasayishi bilan ikki tomonlama jarayon bilan tavsiflanadi (mija urish refleksining yo'qligi va shox pardaning soch yoki paxta xivchini bilan tekshirilganda sezgirligini pasayishi). EED ning oxirgi bosqichlarida og'riq sindromi kuchayadi. Yon tomondan yoritilganda shox pardaning ko'zgusimonligi, yaltiroqligi, buziladi uning sathining dag'allashishi epitelial qatlamining yaxlitligidagi mikro buzilishlar aniq ko'rinadi, bu ayniqsa shox pardani butunligini 1% li fluorestin eritmasidan foydalanamiz.

Diagnostika: viziometriya, yon tomondan yoritib ko'rish, oftalmoskopiya, biomikroskopiya, algisimetriya.

EEDni davolash modalar almashunuvining stimulasiya qiluvchi terapiya: mushak ichiga in'ektsiya, biostimulyatorlar, solcoseryl yoki aktovegin, ko'z geli shaklida kon'yunktiva bo'shlig'iga qo'yish bir xil dorilar, riboflavinning subkonyunktival in'ektsiyalari, ATF, 4% taufon, Oftagel. "sun'iy ko'z yoshlari" yoki gemodez kabi dorilarning instilatsiyasi. Yaxshi terapevtik ta'sir yuqoridagi dorilardan biri bilan to'yingan kontakt linzalarini qo'yish, shuningdek geliy-neon lazer stimulyatsiyasi kurslari orqali erishiladi. Ta'sir bo'lmasa yoki og'riq sindromining kuchayishi bilan terapevtik keratoplastika qilish.

2.2. GAVHAR PATOLOGIYASI

Gavharning yoshga bog'liq qalinlashib qolishi bilan bir qatorda, har ettinchi odamda gavhar moddasi yoki uning kapsulasi xiralashishi **katarakta** deb ataladi.

Etiologiya. Katarakta rivojlanishining asosiy sabablari:

- 1) Metabolizm jarayonlarning buzilishi, shuningdek, mahalliy metabolik o'zgarishlar (yoshga bog'liq, keksalik kataraktasi);
- 2) gavharning yaxlitligining strukturasi buzish (travmatik katarakt);
- 3) toksik zararlanishlar;
- 4) nurli zararlanishlar;
- 5) tug'ma va irsiy anomaliyalar;
- 6) endokrin nomutanosiblik – oqibatida yuzaga keladigan asoratli katarakta (diabetik, tetanik, miyotonik);
- 7) sekin kechuvchi yallig'lanish jarayonlari (uveal katarakt) va boshqalar.

Kataraktalarning patogenezida oqsillarning oksidlanishi (B-kristalinning avtolizi) ularning suvda eriydigan holatdan suvda erimaydigan komplekslarga o'tishi muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon odatda ko'p yillar davom etadi.

Katarakta: tug'ma (statsionar, progressiv bo'lmagan) va orttirilgan (progressiv) bo'linadi.

Kataraktlar gavhar xiraligining qaerida joylashganligiga qarab ham farqlanadi: *kapsulyar (oldingi va orqa polyar), kortikal, zonulayr, yadroli; total* bo'lishi ham mumkin. Tug'ma kataraktlar yumshoq tuzilishga ega va jarrohlik paytida aspiratsiya qilinishi mumkin. Ortirilgan kataraktlar ko'pincha qattiq bo'lib, shakllangan yadroga ega, ular qobiqqa (ekstraktsiya) duchor bo'ladi. Ortirilgan kataraktalarning eng ko'p tarqalgan va eng ko'puchraydigan shakli yoshga bog'liq (qarilik)

kataraktalar (6 – rasm). Odatda bu holat 60 yoshdan oshgandan keyin boshlanadi va doimo rivojlanib boradi. Keksalik kataraktasi *boshlang'ich, yetilmagan, yetilgan* va *o'ta yetilgan* turlari farqlanadi.



6 – rasm. Keksalik yetilgan kataraktasi

Diagnostika: viziometriya, yon tomondan yoritib ko'rish, oftalmoskopiya, biomikroskopiya, ko'zning ultratovush tekshiruvi (A – B skanerlash), UBM, tonometriya.

Klinikasi gavharning xiralashuv joyi intensivligi va kataraktaning yetilgan darajasi bilan bog'liq. Bemorlar asosan ko'rish qobiliyatining pasayishi hamda predmet ko'rishning butunlay yo'qolishiga shikoyat qiladilar. Yorug'lik sezish saqlanadi, kecha va kunduzni farqlasholadi, ranglarni filtr orqali ko'ra oladi.

Tashxis: odatda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi va uchta etakchi belgilarga asoslangan asoslanadi.

1. Ko'rish o'tkirligining asta – sekinlik bilan uzoqdan pasayishiga, hamda predmet ko'rishish yo'qolishiga.
2. Yon tomondan yoritib ko'rganda qorachig'ning rangining o'zgarishi: qora rangdan kul ranggacha (boshlang'ich va yetilmagan bosqichlarda) oq ranggacha (yetilgan bosqichida), ba'zida marvarid tusga (o'ta yetilgan davrida).
- 3 . O'tib ketuvchi yorug'likda va biomikrokopiya tekshirilganda, ko'z gavharining pereferiyaidan marqazga qarab, shtrixsimon xiralashuvlar (bosshlang'ich davrida) ko'z tubidagi qizil refleksning to'liq yo'qolishiga qadar (yetilgan davrida)

Katarakti konservativ davolash mahalliy metabolik jarayonlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak. Stimulyasiyalovchi va vitaminli, mikroelementlarga boy biostimulyatorlar antioksidantlar tarkbida aminokislotalari mavjud, ko'z tomchilari ko'rinishida mahalliy ishlatiladi. Zamonaviy kataraktaga qarshi dorilar orasida katahrom, vitaiodurool, senkatalin, quinax, vitayfakol, kataxol o'zlarini yaxshi isbotladilar, bu muntazam foydalanish kursi bilan kataraktning rivojlanishini sezilarli darajada sekinlashtirishga imkon beradi (3-5

yoshdan 10-35 yoshgacha). Bu, ayniqsa, nafaqa yoshidagi bemorlarda bir tomonlama (monokulyar) jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi bizni mamlakatimizda ham kataraktani davolashning asosiy usuli mikrojarrohlik hisoblanadi. Ko'z ichi linzalarini (IOL) implantatsiya qilish ko'p hollarda bemorlarning to'liq ijtimoiy va professional rehabilitatsiyasiga erishishga imkon beradi.

Jarrohlik davolash uchun ko'rsatmalarni aniqlashda qat'iy cheklovlar yo'q. Boshqa ko'zning ko'rish o'tkirligi yuqori bo'lgan bir tomonlama katarakta bilan shifokor ko'pincha bemorni professional rehabilitatsiya qilish imkoniyatini hisobga olishi kerak, operatsiya vaqtini belgilashda bemorning umumiy holatini hisobga olish kerak. , keksa odamni qoniqarli holatda kasalxonaga yuborish shart, qachonki u hech qanday muammosiz jarrohlik amaliyotini o'tkazishi mumkin mahalliy anesteziya (*ekstrakapsulyar kataraktani ekstraksiya, tumelekstraksiyasi, fakoemulsifikatsiya* operatsiyalari o'tqaziladi).

Ikki tomonlama katarakt bilan bemor operatsiya vaqtini o'zi belgilaydi, uning ko'rish o'tkirligini e'tibor beradi. Bemor ish qobilyati chegaralashi, o'qishda qiynalishini, jarrohlik davolash uchun ko'rsatma hisoblanadi.

2.3. SHISHASIMON TANA PATOLOGIYASI

2.3.1. Shishasimon tananing suzuvchi xiraliklari

Shishasimon tana - bu o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan organ - shaffof tarkibda fibril tolalari va tiniq muhitdan iborat. Tarkibi bo'yicha u likvor va kamera suyuqligiga o'xshaydi, ammo yuqori yopishqoqlikka ega (u mustahkamlik jihatidan xom tuxum oqsiliga o'xshaydi).

Fibrillalar va hujayra elementlarining kichik bo'laklari ko'z harakat qilganda shishasimon tanada harakatlanishi mumkin. Yorqin, kontrastli yorug'likda (masalan, devorning yorqin oq yuzasiga, qorga va hokazolarga qaraganida) odam ko'z oldida suzuvchi kulrang soyalarni (nuqtalar, chiziqlar, dog'lar va boshqalar) sezishi mumkin. Miyopik kasaligi bilan og'rigan bemorlarda ular aniqroq ko'rinadi. Ushbu hodisalar ko'rish o'tkirligini kamaytirmaydi, odatda hech qanday ishga xalaqit bermaydi. Ammo ayrim bemorlarda, bu suzuvchi xiraliklar ko'pincha o'zlariga e'tibor qaratadigan nevroz va asabiy odamlarni bezovta qilishi mumkin.

Ko'p sonli suzuvchi xiraliklarning to'satdan paydo bo'lishi, chaqnash hissi (fotopsiya) bilan birga, bir qator jiddiy ko'z kasalliklarining birinchi belgilari bo'lishi mumkin: to'r parda ko'chishi; shishasimon tanadagi qon quyilishi - gemoftalm; siliar tanasining yassi qismining yallig'lanishi.

Ko'rish o'tkirligining asta – sekin pasayishi destruktiv o'zgarishlar bilan bo'liq bo'lishi mumkin, bu holat shishasimon tananing yoshga bog'liq suyuqlashishi, fibrillyar orolchalarning yo'qolishi va oqsillarning ivishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bu o'zgarishlarni o'tib ketuvchi yorug'lik yordamida suzuvchi chivinlar yoki pashachalar, mayda donalar yoki rangli kristallar ("kumush" va "oltin yomg'ir" belgilari) shaklida ko'rinadi, bu esa o'z navbatida tegishli shikoyatlarni keltirib chiqaradi.

Bu holat tomirli traktning yalig'lanish, to'r parda distrofiyasida miopiya baland darajasida transsudat elementlarining kirib borishi yoki mikrogrmoragiya jarayonlarida kuchayishi mumkin. Distrofik o'zgarishlar shishasimon tanasining ajinlanishiga (ko'chishiga) olib kelishi mumkin, bu ko'pincha to'r parda ko'chishidan oldin sodir bo'ladi.

Ayniqsa shishasimon tanada qon elementlarining paydo bo'lishi xafli hisoblanadi, hatto qonning mikrodozasi ham xafli hisoblanadi. Ko'z bo'shlig'idagi qon kontuziyalar, yaralar yoki jarrohlik aralashuvlar natijasida, keksa odamlarda va yurak-qon tomir patologiyalari (arterial gipertenziya, qandli diabet, ateroskleroz, to'r parda distrofiyalari, qon tomir o'smalari) bilan birga keladigan tomir devorining zaifligi tufayli paydo bo'lishi mumkin.

Ko'zda qon mavjudligi shishasimon tanada fibrozni keskin ko'payishni, shishasimon tana asosida proliferasiya paydo bo'lishini, to'r pardaga yopishadigan shvartslar deb ataluvchi biriktiruvchi to'qima shakllanishini rag'batlantiradi (7 – rasm). Ularning chandiqlari to'r pardaning ko'chishi kabi og'ir asoratga olib keladi.



7 – rasm. Shishasimon tanadagi iplar

SamDTU
axborot-resurs markazi

Diagnostikasi yuqorida keltirilgan shishasimon tana o'zgarishlarini (qora mayda nuqtalar, xifchinlar, pushti refleks fonida suzuvchi bulutga o'xshash xiraliklar ko'rinishi, ko'z olmasining harakati bilan harakatlanadigan) o'tib ketuvchi yorug'lik yordamida, biomikroskopiya va ultratodush yordamida tekshiriladi.

Davolash. Ushbu holatlarning terapiyasi oftalmolog bilan maslahatlashganidan keyin amalga oshiriladi. U metabolik jarayonlarni yaxshilashga qaratilgan va vitaminlar kompleks (B, C guruhlari), "Aevit", biostimulyatorlar (aloe, FiBS, shishasimon tana), antioksidantlar (tokoferol, riboksin, emoksipin), angioprotektorlar (stugeron, prodektin, disiton, retinalamin, gistoxrom), so'riltiruvchi stimulyatorlar (kali yod 3 % li eritmasi, kollalizin subkonyunktival inyeksiyalari, vobenzim, teri ostiga lidaza inyeksiyalari, autogematoterapiya) tayinlashni o'z ichiga oladi. Ushbu dorilarni qo'llashning fizioterapevtik usullar keng qo'llaniladi.

3. TO'R PARDA PATOLOGIYASI

To'r parda patologiyasi – bu yurak-qon tomir, endokrin, yuqumli va distrofik kasalliklar natijasida kelib chiqqan to'r parda qon tomirlari va to'r parda to'qimasidagi o'zgarishlari. To'r pardaning markaziy qismi, makula (sariq dog') va uning atrofidagi maydon (paramakulyar) shikastlanganda, ob'ektlarning o'lchami va shaklining buzilishi (*metamorfopsiya*) paydo bo'ladi, markaziy ko'rish pasayadi, ya'ni ko'rish o'tkirligi pasayishi qayd etiladi, o'qish imkonsiz bo'lib qoladi, rang ajratish buzilishi qayd etiladi, markaziy ko'rish sohasida mahalliy defekt joylari (*skotoma*) paydo bo'ladi. To'r pardaning periferik sohalariga zarar yetganda, bemorlar kechqurun va tunda yomon ko'rishi (*gemeralopiya*), ko'rish maydoni chegaralarining torayishi bilan bog'liq bo'lgan atrof muhitda moslashishdagi qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Shuni esda tutish kerakki, ko'z olmasining orqa qismlari sezgir innervatsiyaga ega emas va shuning uchun to'r parda barcha patologik jarayonlar og'riqsiz, ya'ni simptomsiz o'tadi.

To'r pardaning zararlanishlaridagi asosiy **diagnostika** usuli oftalmoskopiya hisoblanadi.

To'r pardaning u yoki bu kasalliklar hisobidan ko'z tubi oftalmoskopik kartinasi o'zgarishlari, 4 ta simptomatik guruhga bo'linadi.

1. Qon tomirlari kalibridagi o'zgarishlar (torayishi, kengayishi, notekisligi), ularning yo'nalishidagi o'zgarishlar va devorlarning o'zi

(anevrizmatik kengayishi va yupqalashishi, qalinlashuv va skleroz, obliteratsiya va boshqalar);

2. Har xil o'lchamdagi va shakldagi qon ketishining mavjudligi;

3. Pigment konlarining paydo bo'lishi yoki aksincha, depigmentatsiyalangan o'choqlar;

4. To'r parda to'qimalarning shaffofligini buzish (shish, ekssudatsiya, infiltratsiya).

3.1. ARTERIAL GIPERTENZIYADA TO'R PARDANING O'ZGARISHLARI


Arterial gipertenziya va ateroskleroz to'r pardaning eng tez-tez uchraydigan o'zgarishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklarning rivojlanishi bilan ko'z tubining rasmi ham o'zgaradi va bu o'zgarishlar 3 asosiy bosqichda o'tadi.

I bosqich - gipertoniyaning dastlabki bosqichiga xos bo'lgan gipertenziv angiopatiya: to'r pardaning mikrotomirlarning torayishi yoki kengayishi, eng kichik venulalarning burilish ko'rinishi (*Gvist simptomi*) (8-rasm).



8 – rasm. Adamyuk – Givista simptomi

II bosqich - gipertenziya angioskleroz, II darajali gipertenziyaga xos bo'lgan va tomirlarning notekis kalibrli, ularning vayronagarchiliklari bilan namoyon bo'lishidan iborat. Tomirlardan oftalmoskopik refleks qoraroq bo'ladi ("*mis sim*" simptomi), qon tomir devorining og'ir sklerozi bilan esa oq rangga aylanadi ("*kumush sim*" belgisi). To'r parda to'qimalarida skleroz tufayli arteriyalarning vena qon tomirlar bilan kesishgan joyida turli darajadagi bosilishi kuzatiladi (*Salus - Gunn I – II darajali simptomlar*) (9-rasm).



9 – rasm. Salyus – Gunna simptomi, I – III darajalar

III bosqich – retinopatiya (neyroretinopatiya) rivojlangan arterial gipertenziyada, to'r parda to'qimalarining allaqachon jarayonda ishtirok etishi bilan: plazma va qon ketishlar paydo bo'ladi, disksimo makula shishi va uning atrofida "yulduzsimon" shakllanish bilan, so'ngra makula degeneratsiyasi kuzatiladi. Shunga o'xshash holatlarni nefrit hisobidan qon bosimi ortishi bilan og'rigan bemorlarda kuzatish mumkin.

II va III bosqichli arterial gipertoniya bilan og'rigan bemorlar ko'rish o'tkirligining pasayishiga, rangni ajratishning buzilishiga, ko'rish maydonida halqa shaklidagi defektlar (skatoma) paydo bo'lishiga shikoyat qilishlari mumkin.

Diagnostika: viziometriya, oftalmoskopiya, perimetriya, retinofot, 2 proektsiyada bosh suyagining rentgenogrammasi, bosh miyaning kompyuter tomografiyasi, Vodovozovga ko'ra oftalmoxromoskopiya, intrakranial bosimni o'lchash.

Arterial gipertenziyadagi ko'z belgilari asosiy kasallikning tashxisi va prognozini aniqlashtirish uchun muhimdir. Arterial gipertenziyada to'r parda o'zgarishlarni o'ziga xos spesefik davolash qo'llanilmaydi: asosiy kasallikni kompleks davolash amalga oshiriladi, mahalliy - simptomatik terapiya, odatda kurslarda har 6 – 8 oyda bir marta tayinlanadi, asosan ambulator sharoitida buyuriladi. Ushbu kurslarga to'g'ridan-to'g'ri to'r pardaga ta'sir qiluvchi vositalar (masalan, kon'yunktiva ostida yuboriladigan emoksipin va taufon, geparin, aktovegin), shuningdek umumiy organizmni stimullovchi ta'sir ko'rsatadigan dorilar (masalan, aloe, vitaminlar, antisklerotiklar, tomir kengaytiruvchi vositalar va dezagregantlar) panretinal to'r pardaning lazer koagulyatsiyasi kiradi. Davolash umumiy amaliyot shifokori tomonidan amalga oshiriladi.

Qo'llab-quvvatlash va stimullovchi terapiya kurslarini o'tkazishda qon bosimi darajasini nazorat qilish juda muhim, qon bosimi juda past bo'lmasligi kerak, chunki bu ko'zda allaqachon yuqori perfuzion bosimini yomonlashtirishi mumkin.

3.2. QANDLI DIABETDA TO'R PARDANING O'ZGARISHLARI

